



# IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№5 (3)**



**2026**

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.  
3-qism*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Rustamov Ilkomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Rakhimovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHGA QARATILGAN HAYOTIY TASHABBUSLAR.....	12
<b>Muxiddin Kalonov</b>	
O'ZBEKISTONDA NAQDSIZ TO'LOVLAR ULUSHINING OSHISHI VA PUL MASSASI NAZORATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	28
<b>Pardayev G'ayrat Jabbor o'g'li</b>	
BUXGALTERIYA HISOBINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI HISOB SIYOSATINING SHAKLLANISHIDA ASOS SIFATIDA.....	34
<b>Abduvaxidov Farxod Tuychiyevich</b>	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA ICHKI SIFAT NAZORATI STANDARTLARINI RISKKA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	41
<b>Bobonarova Kamola</b>	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION-INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	47
<b>Azizova Habiba Arslonovna</b>	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	56
<b>Yusupova Dilbar Mirabidovna</b>	
KARBOHOVYIE KREDITI V AGRAPNOM SEKTOPE KAK INSTRUMENT RAZVITIYA ZEL'ENOH EKONOMIKI UZBEKISTANA.....	61
<b>Abdullaeva Zaynab Ruslanovna</b>	
BUXORO ZINDONI VA BOLO HOVUZ ANSAMBLI MISOLIDA TARIXIY OBIDALARNING BARQAROR TURISTIK SIG'IMI TAHLILI.....	66
<b>Shodiyeva Moxichehra Shokir qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li</b>	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI.....	73
<b>Ravshanjon Azimovich</b>	
O'ZBEKISTONDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA BUXORO VILOYATI TAHLILI.....	80
<b>Davidxodjayev Oybek Obidovich</b>	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION KREDITLASHLASHNING AMALDAGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI.....	85
<b>Abdurashidova Mohidil Qodir qizi, Karimova A.</b>	
IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA DXSH ASOSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	91
<b>Toxirov Jaxongir Maxmudjon o'g'li</b>	
SURXONDARYO VILOYATIDA UY-JOY QURILISHI VA IPOTEKA KREDITLASHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI.....	96
<b>Turopova Nigora Xolmurod qizi, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi</b>	
ESG INTEGRATION AND GREEN FINANCIAL ANALYSIS: A NEW METHODOLOGICAL APPROACH TO CORPORATE FINANCIAL SUSTAINABILITY.....	100
<b>Erkin Temirovich Shodiev</b>	
THE CURRENT STATE OF DIGITALIZATION OF TOURISM IN UZBEKISTAN AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT.....	105
<b>Bekmurodov Bakhtiyor Farkhodovich</b>	
TA'LIM MUASSASALARINI MOLIVALASHTIRISHDA OPTIMALLASHTIRISH ZARURATI VA YO'NALISHLARI.....	113
<b>Umarov Avzaljon Yodgorali o'g'li</b>	



АХОЛИ ИСТЕ’МОЛ МАДАНИЯТИ ВА МИЛЛИЙ ИQTISODIY O’SISHGA TA’SIRI ..... 118 <b>Rustamov Sheroz Oblokulovich</b>	118
ISHLAB CHIQRISH OMILLARINING IQTISODIY O’SISHGA TA’SIRI: KOBБ–DOUGLAS MODELИ ASOSIDA EKONOMETRIK TAHLIL ..... 123 <b>Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich</b>	123
BARQAROR SHAHARSOZLIK RIVOJLANISHIGA ERISHISHDA QATTIQ CHIQINDILARNI KOMPLEKS BOSHQARISH ..... 129 <b>Firas Halawani, Feruza Insavaliyeva</b>	129
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕАЛИЗАЦИИ НА НАЦИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ КЛЮЧЕВЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ СОГЛАШЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ, В УЗБЕКИСТАНЕ И СОСЕДНИХ СТРАНАХ..... 139 <b>Шафикова Луиза, Ойбек Камилов</b>	139
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА УЗБЕКИСТАНА: ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО УРОВНЯ И ПОТЕНЦИАЛА РОСТА ..... 150 <b>Омонтурдиева Диёра</b>	150
YER VA SUV RESURSLARINI INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARISHDA DRONLARDAN FOYDALANISH..... 155 <b>Matkarimov Mansur</b>	155
YASHIL INVESTITSIYALAR BOZORI MEХANIZMINING DASTAKLARI ..... 161 <b>Ziyodullayeva Gulasal Akmal qizi</b>	161
СТРАТЕГИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ И УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА ПОСРЕДСТВОМ HR-БРЕНДИНГА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИКА РЕАЛИЗАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ..... 167 <b>Дониерова Фотимабону Алишер кизи</b>	167
KAMBAG’ALLIKNI MONETAR VA KO’P O’LCHOVLI BAHOLASH METODOLOGIYASI ASOSIDA IQTISODIY O’SISH STRATEGIYALARINI KONSEPTUAL TAKOMILLASHTIRISH ..... 173 <b>Sotiboldiyev Asadbek Hasan o’g’li</b>	173
QURILISH SANOATIDA RESURS TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO’NALISHLARI..... 179 <b>Utbasarov Doniyorjon Baxtiyorovich</b>	179
KICHIK BIZNESDA XIZMATLAR SOHASINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI..... 188 <b>Raximov Zafar Komilovich, Mamatazimov Jaloliddin Sherzod o’g’li</b>	188
MANAGING DIGITAL TRANSFORMATION IN PRIMARY HEALTHCARE: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW ..... 192 <b>Ashurova Sitora Xusnitdin qizi</b>	192
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРАВОВЫЕ ПРОБЕЛЫ В УПРАВЛЕНИИ ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ ВОД В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ ..... 197 <b>Тиллахуджаев Аббосхон, Дилфуза Шакирова, Мухамедалиева Сайёра, Ойбек Камилов</b>	197
JAHON ME’MORIY MEROSIDAN TURIZMDA FOYDALANISH: DOLZARB MUAMMOLAR, ZAMONAVIY YECHIMLAR VA ISTIQBOLLI TAKLIFLAR..... 208 <b>Qilichov Muhriddin Husniddin o’g’li</b>	208
IMPROVING SALES PROMOTION STRATEGIES FOR UZBEK EXPORTERS IN DEVELOPING FOREIGN MARKETS..... 217 <b>Aziz Kurbanovich Abdullaev, Rustamova Madina Baxrom qizi</b>	217
ENVIRONMENTAL DEGRADATION AND CARBON EMISSION: INTERCONNECTED LINKS WITH ECONOMIC GROWTH IN POST-SOVIET..... 222 <b>Rajabova Malika Nuriddin qizi</b>	222
NATIЈAGA YO’NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISHGA OID ILMIY QARASHLAR VA YONDASHUVLAR ..... 230 <b>Qosimova Gulyar Axmatovna</b>	230



ТРАНСГРАНИЧНЫЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНОГО ТУРИЗМА НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН.....	236
<b>Наурызбаев Алиакбар Рустамович</b>	
ВЗАИМОСВЯЗЬ УРОВНЯ ЖИЗНИ И ИНДЕКСА ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ .....	239
<b>Усманова Зумрад Исламовна</b>	
KIMYO SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI .....	242
<b>Muxammadiyeva Munira Zaynabuddinovna</b>	
QISHLOQ UY-JOY QURILISHIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARINING AHAMIYATI.....	248
<b>Xannarov Komiljon Karimovich</b>	
TIBBIYOT MUASSASALARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH VA VAZIFALAR TAQSIMOTI TAMOYILLARI.....	253
<b>Saidov Suhrob Shodmonovich</b>	
HUDUDIY IQTISODIY INTEGRATSIYA RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBASI VA MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI UCHUN AHAMIYATI.....	257
<b>Akbarova Kamola Akmaljonovna</b>	
MOLIYAVIY TAHLIL AXBOROT BAZASINING KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI .....	263
<b>Karimov Eminjon Gapardjonovich</b>	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI .....	270
<b>Shermatov Axror Abdixakimovich</b>	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA ENERGIYA SAQLASH TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....	275
<b>Ergash Bobobekov</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARIDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....	281
<b>Yo'ldoshev Jamshid Nu'monovich</b>	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	285
<b>Qurbonova Rahima Jamshedovna</b>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI ISH O'RINLARINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	290
<b>Ibroximova Nafosat Abdusattor qizi</b>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA QAYTA ISHLASHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	297
<b>Raximov Zikrullo Soyibjon o'g'li</b>	
RAQAMLI MUHITDA REKREATSION XIZMATLAR MARKETINGINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI .....	302
<b>Usmanova Zumrad Islamovna</b>	
WAYS TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATIONAL SERVICES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS .....	306
<b>Iskhakova Sarvar Ayubovna, Amriyeva Shahzoda Shukhratovna</b>	
BARQAROR TURIZMGA ERISHISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	312
<b>Baxtiyorov Javlon Fazliddin o'g'li</b>	
MEVA MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY TIZIMI.....	316
<b>Yusufova Laylo G'ayrat qizi</b>	



AHOLISI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA QISHLOQ JOYLARINING BARQAROR RIVOJLANISHI: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR.....	325
<b>Yusufjonov Jahongir Ilxomjon o'g'li</b>	
СТРАТЕГИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ В ФИЛОСОФИИ СТОИЦИЗМА И СОВРЕМЕННОЙ ТЕОРИИ СТРАТЕГИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ВЗГЛЯДОВ МАРКА АВРЕЛИЯ И КОНЦЕПЦИИ СТРАТЕГИРОВАНИЯ ВЛАДИМИРА Л. КВИНТА.....	329
<b>Норкулов Суннатбек Алишерович</b>	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	335
<b>Kurbanov Baxodir Negmatullayevich</b>	
MAMLAKATIMIZDA INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA QULAY BIZNES MUHITINING TA'SIRI.....	341
<b>Vahidova Gulhayyo Arzi qizi</b>	
O'ZBEKISTONDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI BANK KREDITLARI BILAN TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	347
<b>Raxmanova Ilmira Rustamovna</b>	
SAVDO KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MAQSADLI MARKETINGDAN FOYDALANISH YO'NALISHLARI.....	354
<b>Toxirov Javlon Raximovich</b>	
MAXSUS IQTISODIY ZONALARNI TARKIBIY QISMLARI BO'YICHA BAHOLASHNING MUHIM OMILLARI.....	361
<b>Arslonov U. U.</b>	



# MAXSUS IQTISODIY ZONALARNI TARKIBIY QISMLARI BO'YICHA BAHOLASHNING MUHIM OMILLARI

Arslonov U. U.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Maxsus iqtisodiy zonalar milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda xorijiy investitsiyalarni faol jalb etishga yo'naltirilgan maxsus huquqiy va iqtisodiy rejim amal qiladigan hududiy tuzilmalar hisoblanadi. Ushbu zonalarda soliq va bojxona imtiyozlari, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanganligi hamda ma'muriy tartib-taomillarning soddalashtirilgani tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** maxsus iqtisodiy zona, hudud, iqtisodiyot tarmog'i, samaradorlik, sanoat, ishlab chiqarish, mehnat munosabatlari.

**Abstract.** Special economic zones are territorial entities in which a special legal and economic regime operates, aimed at increasing the competitiveness of the national economy, developing high-tech production, and actively attracting foreign investment. These zones provide tax and customs incentives, well-developed engineering and communication infrastructure, and simplified administrative procedures, which contribute to improving the efficiency of business entities.

**Key words:** special economic zone, region, economic sector, efficiency, industry, production, labor relations.

**Аннотация.** Специальные экономические зоны — это территориальные образования, в которых действует особый правовой и экономический режим, направленный на повышение конкурентоспособности национальной экономики, развитие высокотехнологичного производства и активное привлечение иностранных инвестиций. В данных зонах предоставляются налоговые и таможенные льготы, развита инженерно-коммуникационная инфраструктура, а также упрощены административные процедуры, что способствует повышению эффективности деятельности субъектов предпринимательства.

**Ключевые слова:** специальная экономическая зона, регион, отрасль экономики, эффективность, промышленность, производство, трудовые отношения.

## KIRISH

Maxsus iqtisodiy zonalar samaradorligi, avvalo, hududga jalb etilgan investitsiyalar hajmi, eksport salohiyatining o'sishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi hamda yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Mazkur omillar milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan davlat, investorlar va hududlar manfaatlarining izchilligiga bog'liq. Sarmoyadorlar uchun foyda, davlat uchun respublika budjetiga tushumlar, hududlar uchun esa yangi ish o'rinlari va mahalliy budjetga tushumlar muhim hisoblanadi. Ushbu manfaatlar hisobga olinmasa, zonalar faoliyatida muammolar yuzaga kelishi mumkin. Shu munosabat bilan investorlarning moliyaviy va texnologik to'lov qobiliyati shubha tug'dirmasligi kerak hamda ular tomonidan amalga oshirish uchun taklif etilayotgan loyihalar umumiy iqtisodiy samaradorlikni nazarda tutishi lozim.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini rivojlantirishning hududlar bo'yicha afzalliklari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan. Ularning faoliyati mualliflar tomonidan xorijiy investitsiyalar oqimi, yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sishi, ish o'rinlari yaratilishi, aholi bandligi va ish haqining o'sishi hisobiga MIZlar joylashgan hududlar iqtisodiyotiga tashqi hamda ular bilan bog'liq ta'sirlar nuqtayi nazaridan tavsiflanadi [1, 2, 3, 4].



Yuqoridagi mualliflar tadqiqotlari asosida quyidagi xulosa va takliflarni keltirish mumkin: ushbu ilmiy ishlar mualliflari MIZlarni sanoat rivojlanishi uchun shunchaki bir chora sifatida qabul qilmaslik kerakligini ta'kidlaydilar. Tahlillarga ko'ra, Xitoyning muvaffaqiyatlari jozibador, ammo uning modelini to'g'ridan-to'g'ri ko'chirib olish orqali muvaffaqiyatli natijaga erishish har doim ham mumkin emas [5]. Bunda, bizning fikrimizcha, MIZlar islohotlarni sinab ko'rish va ularning iqtisodiyotga ta'sirini baholash imkonini beruvchi tajribalar uchun platforma bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Hududlarda maxsus zonalar samaradorligini baholash uchun ularning monitoringi, reytingi va reyting baholash mexanizmlari amalga oshirilishi lozim [5]. Bu MIZlar faoliyatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaraladi.

Ayrim mualliflar o'z tadqiqotlarida MIZlarga qarashli korxonalar, tarmoqlar va hududlar samaradorligini aniqlashning turli xil variantlari hamda yondashuvlarini taklif qilgan. Biroq milliy amaliyotda MIZlar samaradorligini baholash uchun maxsus ishlab chiqilgan, keng qamrovli va sinovdan o'tgan ko'p qirrali metodologiya mavjud emas. Shu munosabat bilan hududlar kesimida statistik, qiyosiy va dinamik tahlil usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini baholash uchun statistik ma'lumotlar, taqqoslash va dinamik tahlil usullaridan foydalanildi. Asosiy e'tibor 2019–2024-yillarda MIZlarda ishlab chiqarish, eksport, investitsiya, qurilish ishlari va ish o'rinlari bo'yicha yuz bergan o'zgarishlarni hududlar kesimida tahlil qilishga qaratildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'z mohiyatiga ko'ra, MIZ va sanoat zonalari mamlakat hududlarining alohida qismi bo'lib, unda tadbirkorlik faoliyati uchun alohida huquqiy rejim, jumladan, soliq, bojxona, ma'muriy va fuqarolik-huquqiy imtiyozlar hamda kafolatlar belgilangan.

Maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etilishi va faoliyatining butun davri davomida o'z hududlarini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va aholi bandligini ta'minlash vositasi bo'lib, respublika va uning hududlari iqtisodiyotida ma'lum o'rin egallashga intiladi. Maxsus zonalarni yaratishga bunday katta e'tibor ular muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan respublika hududlari sonining yil sayin ortib borayotganidan dalolat beradi. Ularning soni 2019-yildagi 16 tadan 2024-yilda 25 taga oshdi. Respublika hududlarida MIZlar sonining izchil ortishi ularning tarkibidagi korxonalar sonining keyingi 6 yilda 666 taga, ya'ni 405 tadan 2019-yilda 1071 taga 2024-yilda ko'payishiga olib keldi (1-jadval).

Ma'lumki, respublikada maxsus zonalar turli tarmoqlar bo'yicha tashkil etilgan va ularning faoliyat sohalari taqsimlangan. Jumladan, sanoat, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi, turizm, transport-logistika va boshqa yo'nalishlar shular jumlasidandir.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston maxsus iqtisodiy va sanoat zonalari hududlarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2019-yilda 7 877,5 mlrd so'mni, 2023-yilda 37 769,2 mlrd so'mni, 2024-yilda esa 44 182,5 mlrd so'mni tashkil etgan. 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 17 foizga oshgan. Hududlarda sanoat ishlab chiqarishning eng yuqori o'sish sur'atlari Jizzax viloyatida 29,1 foiz, Navoiy viloyatida 13,2 foiz, Toshkent viloyatida esa 2,4 foiz bo'lgan.

1-jadval. O'zbekistonda maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarining hududiy va tarmoq rivojlanish ko'rsatkichlari dinamikasi, mlrd so'm, amaldagi narxlarda

Hududlar	Ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti — ishlar, xizmatlar — hajmi		Bajarilgan qurilish ishlari hajmi		Ko'rsatilgan eksport xizmatlari hajmi		Asosiy kapitalga investitsiyalar	
	2019	2024	2019	2024	2019	2024	2019	2024
O'zbekiston Respublikasi	7877,5	44182,5	36,9	198,2	87,7	2022,5	3313,1	16511,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	17,2	116,8	-	64,8	-	1,4	59,5	720,6
Andijon viloyati	-	425,7	-	1,0	-	7,2	-	700,8
Buxoro viloyati	332,2	1190,6	-	3,6	14,0	65,1	40,4	6539,3
Jizzax viloyati	558,0	14114,1	-	57,9	-	644,3	206,3	1046,4
Qashqadaryo viloyati	-	12,6	-	57,7	-	7,1	-	11,9



Navoiy viloyati	1702,2	5749,8	36,9	13,0	0,4	93,0	645,8	1852,2
Namangan viloyati	2,9	1175,8	-	-	6,4	18,8	54,0	621,3
Samarqand viloyati	842,4	4733,4	-	-	-	44,6	278,4	2758,2
Surxondaryo viloyati	1,6	55,6	-	-	-	46,2	11,7	300,3
Sirdaryo viloyati	611,3	2820,0	-	-	1,7	16,6	580,4	471,3
Toshkent viloyati	2860,3	10258,5	-	0,02	65,2	1063,0	1155,9	1257,0
Farg'ona viloyati	861,9	3262,1	-	-	-	0,4	220,4	206,9
Xorazm viloyati	87,5	267,1	-	-	-	14,0	60,1	25,5
Toshkent shahri	-	-	-	-	-	-	-	-

Hudud zonalarida o'z kuchi bilan qurilish ishlarining bajarilishi yillar bo'yicha hali keng rivojlanmagan, faqat Navoiy viloyati bundan mustasno. O'tgan 2024-yilda mamlakatimiz maxsus zonalarida jami 198,2 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilgan, bu 2023-yilga nisbatan 4,2 mlrd so'mga ko'p hisoblanadi (1-jadval).

Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarida 2024-yilda 2022,5 mlrd so'mlik eksport xizmatlari ko'rsatilgan, bu 2023-yilga nisbatan qariyb 69 foizga yuqori. Jizzax hamda Toshkent viloyatlari zonalarida 2024-yilda mos ravishda 644,3 mlrd so'm va 1063 mlrd so'mga teng eksport xizmatlari ko'rsatilgan. Bular respublikada ko'rsatilgan eksport xizmatlarining mos ravishda 31,2 va 52,3 foizini tashkil qiladi.

Maxsus zonalarining hududiy rivojlanishiga keyingi yillarda investitsiyalar kiritish hajmi bir muncha oshgan. Buxoro, Jizzax, Navoiy, Samarqand va Toshkent viloyatlaridagi maxsus iqtisodiy va sanoat zonalariga eng ko'p asosiy kapitalga investitsiyalar jalb qilingan. Ushbu viloyatlar zonalar bo'yicha kiritilgan investitsiyalar jami investitsiyalarning 21,5 foizini tashkil etadi.

Shunday qilib, 2024-yilda MIZ ishtirokchilari — korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari — ishlar, xizmatlar — ulushi respublika qiymatining qariyb 5 foizini, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 3,3 foizini, ko'rsatilgan xizmatlar 0,2 foizini, qurilish ishlarining ulushi esa 0,1 foizni tashkil etadi.

Quyidagi statistik ma'lumotlarda tarmoqlar bo'yicha 2019–2024-yillarda respublika MIZlarida ishtirok etuvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining o'sish dinamikasi ko'rsatilgan. Bunday mahsulotlar hajmi tahlil qilinayotgan davrda 5,6 barobar oshib, 2024-yil yakuniga ko'ra 44 182,5 mlrd so'mni tashkil etdi. Bu mahalliy xomashyoni qayta ishlash darajasini bosqichma-bosqich chuqurlashtirish va ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish imkonini berdi (1-rasm).

Hudud korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining eng katta ulushi quyidagi tarmoqlarga to'g'ri keladi: avtotransport vositalari, tirkamalar va yarim tirkamalar — barcha mahsulotlarning 28,7 foizi, metallurgiya sanoati mahsulotlari — 16,5 foiz, oziq-ovqat mahsulotlari — 14,1 foiz, kauchuk va plastmassa buyumlari — 8,5 foiz, to'qimachilik mahsulotlari — 6,1 foiz, metall bo'lmagan mineral mahsulotlar — 5,4 foiz, kimyo mahsulotlari — 3,6 foiz.

Respublika hududlarida joylashgan MIZ tarkibidagi ishlab chiqarish korxonalar zamonaviy yuqori texnologiyali uskunalar bilan jihozlangan bo'lib, jahon bozorida raqobatbardosh tayyor mahsulot ishlab chiqarish imkonini bermoqda. 2024-yilda MIZga kiruvchi korxonalar tomonidan respublikadan tashqariga 16 020,8 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari — tovarlar va xizmatlar — jo'natildi.

2019–2024-yillarda ko'rsatkichning o'sishi bilan tavsiflangan MIZlar tomonidan ko'rsatilayotgan eksport xizmatlari hajmining ijobiy tendensiyalari davom etayotganini alohida ta'kidlash joiz. 2024-yilda ishtirokchi tarmoq korxonalar tomonidan 2 022,5 mlrd so'mlik eksport xizmatlari ko'rsatilgan. 2019-yilda bu ko'rsatkich 87,7 mlrd so'mni tashkil etgan.

Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarining hududlar iqtisodiyotiga qo'shgan hissasini tahlil qilar ekanmiz, ularning ta'siri turlicha ekanligini kuzatish mumkin. Ayrim hududlarda bu ko'rsatkich yuqori, ba'zilarida esa nisbatan past ekanligini ta'kidlash lozim (2-jadval).

2024-yilda ko'rsatkichlarning eng katta ulushi, boshqa hududlardan farqli ravishda, quyidagi hududlarda faoliyat yurituvchi zonalar hissasiga to'g'ri kelgan: Jizzax viloyati — 31,9 foiz sanoat mahsulotlari, 31,9 foiz ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, 29,2 foiz qurilish ishlari hajmi; Toshkent viloyati — 23,2 foiz sanoat mahsulotlari, 52,6 foiz ko'rsatilgan xizmatlar hajmi; Navoiy viloyati — 13 foiz sanoat mahsulotlari; Qashqadaryo viloyati — 29,1 foiz qurilish ishlari hajmi; Buxoro viloyati — 39,6 foiz asosiy kapitalga investitsiyalar; Samarqand viloyati — 16,7 foiz asosiy kapitalga investitsiyalar; Qoraqalpog'iston Respublikasi — 32,7 foiz qurilish ishlari hajmi (2-jadval).



2-jadval. Hududlarda maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati ko'rsatkichlari ulushidagi o'zgarishlar, % da (tarmoqlar kesimida)

Hududlar	Sanoat ishlab chiqarish hajmi		Ko'rsatilgan xizmatlar hajmi		Tugallangan qurilish ishlari hajmi		Asosiy kapitalga investitsiyalar	
	2021	2024	2021	2024	2021	2024	2021	2024
O'zbekiston Respublikasi	100	100	100	100	100	100	100	100
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,4	0,3	-	0,1	-	32,7	-	4,4
Viyoatlar:								
Andijon	0,1	1,0	3,1	0,4	-	0,5	2,2	4,2
Buxoro	3,4	2,7	6,1	3,2	2,3	1,8	0,3	39,6
Jizzax	12,0	31,9	-	31,9	-	29,2	1,4	6,3
Qashqadaryo	-	0,03	35,7	0,4	-	29,1	-	0,1
Navoiy	20,3	13,0	0,8	4,6	91,7	6,6	15,6	11,2
Namangan	1,5	2,7	0,1	0,9	-	-	1,8	3,8
Samarqand	12,5	10,7	1,8	2,2	-	-	6,6	16,7
Surxondaryo	0,1	0,1	0,6	2,3	-	-	1,1	1,8
Sirdaryo	6,7	6,4	51,9	0,8	-	-	21,2	2,9
Toshkent	29,9	23,2	-	52,6	3,6	0,01	42,8	7,6
Farg'ona	12,0	7,4	-	0,02	2,4	-	3,4	1,3
Xorazm	1,0	0,6	-	0,7	-	-	3,6	0,2

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2021-yilda respublika hududlarida MIZ tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan ayrim tarmoqlar bo'yicha faoliyat turlari bajarilmagan. Buxoro, Navoiy, Toshkent va Farg'ona viloyatlari bundan mustasno bo'lib, ko'plab viloyatlarda qurilish ishlari bajarilmagan. Biroq 2024-yildan boshlab hududlardagi ko'plab MIZlarda qurilish ishlari amalga oshirila boshlandi. Hududlarda bunday holat boshqa tarmoq ko'rsatkichlari bo'yicha ham kuzatiladi.

2024-yilda 2021-yilga nisbatan Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan MIZ tuzilmasidagi korxonalarining sanoat mahsulotlari ulushi 19 foiz punktga oshgani qayd etildi. Bu ko'rsatkichning eng sezilarli pasayishi Navoiy — 7,3 foiz punkt, Toshkent — 6,7 foiz punkt, Farg'ona — 4,7 foiz punkt viloyatlarida kuzatilmoqda.

O'zgarishlarga uchragan navbatdagi ko'rsatkich MIZ tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmidir. Shunday qilib, 2024-yilda Qashqadaryo — 35,3 foiz punkt va Sirdaryo — 51,1 foiz punkt kabi viloyatlarda faoliyat yuritayotgan MIZlarda 2021-yilga nisbatan mazkur ko'rsatkich ulushi kamaygan. MIZ tuzilmasida korxonalar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi ulushining eng katta o'sishi Navoiy va Surxondaryo viloyatlariga to'g'ri keladi.

MIZlarning asosiy kapitaliga investitsiyalar ulushidagi o'zgarishlarni ko'rib chiqish ham muhimdir. Bu yerda ham ijobiy, ham salbiy tomondan yetakchi hududlar mavjud. Masalan, 2024-yilda 2021-yilga nisbatan asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar ko'rsatkichi ulushining o'sishi Buxoro — 39,3 foiz punkt, Samarqand — 10,1 foiz punkt, Jizzax — 4,9 foiz punkt va Namangan — 2 foiz punkt viloyatlaridagi MIZlar tarkibida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalariga to'g'ri keladi. 2024-yilda ushbu hududlarda MIZlarning umumiy ulushi 56,3 foiz punktga teng bo'lgan.

Keyingi 2-rasmda 2019–2024-yillarga mo'ljallangan maxsus zonalar korxonalarida mehnat munosabatlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar dinamikasi tahlil qilingan.

Maxsus zonalar tarkibidagi korxonalarda 2024-yilda 50,5 mingga yaqin kishi ishlagan, bu 2019-yilga nisbatan 27,6 ming kishiga ko'pdir. Maxsus zonalarda ish o'rinlari sonining o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Ularning soni 2019–2024-yillarda 29,4 ming o'ringa ko'payib, jami 53,1 ming o'rinni tashkil etdi. Mazkur zonalar tarkibidagi korxonalarda yangi ish o'rinlari sonini ko'paytirish imkoniyati ham mavjud. 2024-yilda korxonalarda bunday o'rinlar 18 mingtani tashkil etgan. Shu bilan birga, olti yil davomida ularning soni har yili 10,7 ming o'ringandan — 2020-yil — 19,6 ming o'ringacha — 2022-yil — bo'lgan.

Agar mehnat munosabatlari bilan bog'liq mavjud statistik ko'rsatkichlar tarkibidagi o'zgarishlarni hisobga oladigan bo'lsak, 2024-yilda respublika hududlarida, xususan, Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan maxsus



zonalar tizimidagi korxonalarda xodimlar soni ulushi 2021-yilga nisbatan 5,6 foiz punktga kamayganligini ko'rish mumkin (3-jadval).

Biroq, umuman olganda, boshqa hududlarda faoliyat yuritayotgan MIZlarda xodimlar soni ulushining oshishi bo'yicha ijobiy tendensiya kuzatilmoqda. Hududlarda shunday holatni mavjud ish o'rinlari va yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni, aniqrog'i, ularning ulushidagi o'zgarish ko'rsatkichlarida ham ko'rish mumkin.

3-jadval. Hududlarning maxsus iqtisodiy zonalarida mehnat munosabatlari ko'rsatkichlari ulushidagi o'zgarishlar tarkibi<sup>1</sup>

Hududlar	Xodimlar soni		Ish o'rinlari soni		Yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni	
	2021	2024	2021	2024	2021	2024
O'zbekiston Respublikasi	100	100	100	100	100	100
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1,2	1,6	1,7	1,9	1,7	1,9
Viloyatlar:						
Andijon	0,2	1,0	0,1	1,4	0,1	1,4
Buxoro	5,5	6,3	4,7	10,2	4,7	10,2
Jizzax	13,9	13,9	16,1	18,9	16,1	18,9
Qashqadaryo	-	0,3	-	0,1	-	0,1
Navoiy	19,1	13,5	33,1	9,5	33,1	9,5
Namangan	2,1	4,9	1,4	8,1	1,4	8,1
Samarqand	10,8	10,8	8,7	8,6	8,7	8,6
Surxondaryo	0,5	2,0	0,2	5,9	0,2	5,9
Sirdaryo	13,1	9,5	10,7	8,8	10,7	8,8
Toshkent	25,6	26,2	18,9	19,2	18,9	19,2
Farg'ona	6,2	8,8	2,1	6,9	2,1	6,9
Xorazm	1,7	1,2	2,3	0,7	2,3	0,7

Tadqiqot yakunida shuni ta'kidlaymizki, MIZ ko'rsatkichlarining milliy ko'rsatkichlardagi ulushi hali ham yetarli emasligiga qaramay, ularning samarasizligi haqida aniq gapirishga hojat yo'q. Hatto bugungi kunda MIZlar faoliyatida mavjud bo'lgan barcha kamchiliklarni hisobga olsak ham, birinchi zona tashkil etilganidan buyon o'tgan 17 yil davomida respublikada 53,1 ming ish o'rne yaratilib, 50,5 ming kishi ish bilan ta'minlandi, ko'plab mahalliy korxonalar eksport darajasiga chiqa oldi. O'zbekiston va uning hududlarida davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev tomonidan asoslangan eksportga yo'naltirilgan MIZlar tashkil etish borasida yangi marralarga erishildi. Bu borada manfaatdor vazirlik, idora va tashkilotlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining alohida e'tibor qaratishi hamda bugungi tendensiyani boy bermasligi zarur.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Yangi O'zbekiston rivojlanish davrida mamlakat hududlarida maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini ustuvor rivojlantirish, eng avvalo, xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirish, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlar faoliyatini kengaytirish, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish va innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish uchun shart-sharoit yaratuvchi vositalar zarur.

2. O'tgan 17 yil davomida maxsus iqtisodiy zonalar respublika hududlari sanoat salohiyatini rivojlantirish va investitsiyalarni jalb etishning samarali vositasiga aylangani bunday obyektlar sonining yil sayin ortib borayotganidan dalolat beradi. Bugungi kunda respublikamizning turli hududlarida 25 ta MIZ mavjud bo'lib, ularda 1071 ta korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda va 53 mingdan ortiq kishi ish bilan ta'minlanmoqda.

3. Tadqiqotlar respublika hududlarida MIZlarni tashkil etish bo'yicha ishlarni kuchaytirish omilining muhimligini ko'rsatdi. Bu esa o'z hududida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning alohida rejimi hisobiga ularning iqtisodiyotini tiklash imkoniyati bilan bog'liq. O'z mohiyatiga ko'ra, maxsus zonalar mamlakat hududining alohida qismi bo'lib, u yerda tadbirkorlik faoliyati uchun alohida huquqiy rejim, jumladan, soliq, bojxona, ma'muriy va fuqarolik-huquqiy imtiyozlar hamda kafolatlar belgilangan.

<sup>1</sup> Manba: muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.



4. Respublikamizdagi MIZlar faoliyatini tahlil qilib, shuni aytish mumkinki, bugungi kunda ularning umumrespublika ko'rsatkichlariga to'laqonli hissa qo'shayotgani haqida gapirishga hali erta. 2024-yilda MIZga kiruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti — ishlar, xizmatlar — respublika qiymatining qariyb 5 foizini, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 3,3 foizini, ko'rsatilgan xizmatlar 0,2 foizini, qurilish ishlarining ulushi esa 0,1 foizini tashkil etdi. Ayni paytda ularning respublika hududlarini iqtisodiy rivojlantirishda tutgan o'rni katta.

5. O'tgan olti yil davomida — 2019–2024-yillar — MIZ tarkibiga kiruvchi korxonalar faoliyatini o'rganish ishlab chiqarish-xo'jalik faolligi sezilarli darajada oshganini ko'rsatmoqda. Ushbu davrda MIZlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti — ishlar, xizmatlar — hajmi 5,6 barobar, qurilish ishlari hajmi 5,4 barobar, ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 27 barobardan ortiq, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar 5 barobar, xizmatlar eksporti hajmi esa 2 barobar oshdi.

6. Bugungi kunda deyarli barcha hududlarda maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini tashkil etilgan va ular samarali faoliyat yuritmoqda. 2024-yilda ko'rsatkichlarning eng yuqori ulushi quyidagi hududlarda qayd etildi: Jizzax viloyati — 31,9 foiz sanoat ishlab chiqarish, 31,9 foiz ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, 29,2 foiz qurilish ishlari hajmi; Toshkent viloyati — 23,2 foiz sanoat mahsulotlari, 52,6 foiz ko'rsatilgan xizmatlar hajmi; Navoiy viloyati — 13 foiz sanoat mahsulotlari; Qashqadaryo viloyati — 29,1 foiz qurilish ishlari hajmi; Buxoro viloyati — 39,6 foiz asosiy kapitalga investitsiyalar; Samarqand viloyati — 16,7 foiz asosiy kapitalga investitsiyalar; Qoraqalpog'iston Respublikasi — 32,7 foiz qurilish ishlari hajmi.

7. Respublika hududlarida MIZlarni rivojlantirish istiqbollari ancha ijobiy. O'zbekistonda barcha hokimiyat organlari MIZlar rivojlanishini qo'llab-quvvatlamoda, chunki ular iqtisodiyotni tartibga solishning muhim vositalaridan biri bo'lib, eksportga yo'naltirilgan korxonalar o'sishi hisobiga tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Cai, J., Xin, K., & Zhou, Y. (2021). A dynamic panel data approach and HCW's method: Assessing the effect of China (Shanghai) Free Trade Zone on local GDP. *Journal of Management Science and Engineering*, 6(3), 249–267. <https://doi.org/10.1016/j.jmse.2021.06.004>
2. Widiyanto, Y. W., & Yudhistira, M. H. (2021). Kawasan ekonomi khusus dan pertumbuhan ekonomi daerah: Bukti empiris KEK Sei Mangkei [Special Economic Zones and Regional Economic Growth: Empirical Evidence of Sei Mangkei SEZ]. *Jurnal Anggaran dan Keuangan Negara Indonesia (AKURASI)*, 3(2), 1–15. <https://doi.org/10.33827/akurasi2021.vol3.iss2.art130>
3. Alexianu, M., Saab, M., Teachout, M., & Khandelwal, A. (2019). Doing Special Economic Zones right: A policy framework. International Growth Centre. <https://www.theigc.org/publications/doing-special-economic-zones-right-policy-framework>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030 strategiyasi to'g'risida"gi 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6600413>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2023–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022-yil 28-dekabrdagi PQ-459-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-6329448>
6. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2019–2024). O'zbekiston Respublikasida maxsus iqtisodiy zonalar bo'yicha statistik ko'rsatkichlar. <https://stat.uz>
7. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portal. (2025). Investitsiya va eksport bo'yicha asosiy vazifalar belgilandi. 2025-yil 17-yanvar. <https://gov.uz/news/view/33167>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2025-yil 4-martdagi PF-41-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-7420262>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 5 (3)

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---